

Date: 19th May-2026

BEHBUDIY – PUBLITSIST, PEDAGOG VA DRAMATURG

Yorqinoy Eshchanova

UrDU akademik litseyi oliy toifali
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
e-mail: yorqinoy2171@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada o'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti va faoliyati tahlil qilinadi.

Annotation: The article analyzes the word usage skills of Mahmudkhoja Behbudiy, a representative of uzbek literature.

Tayanch so'zlar: jadid, publitsist, pedagog, teatr, padarkush, realistik drama.

Key words: freshmen, publicist, teacher, theatre, murder of father, realistic drama, «Kitob ul-atfol», «Teatr nadur?» maqolasi, «Padarkush» dramasi

O'zbek milliy adabiyoti uzoq yillik tarixga ega bo'lib, u XX-XXI asrlarda yangicha yo'nalishlar asosida taqqiy etdi. Jadidchilik harakati ham adabiyotimiz taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Xususan, Behbudiy, A. Avloniy, Fitrat va Cho'lponlarning ijodi adabiyotimiz taraqqiyotida o'ziga xos o'rinni egallabgina qolmay, o'zlikni anglash, milliy uyg'onish g'oyalarini targ'ib etganligi bilan ham e'tiborga loyiqdir.

Mahmudxo'ja ibn Behbudxo'ja ibn Solihxo'ja ibn Niyozxo'ja Behbudiy - Turkiston jadidlarining otasi, XX asr o'zbek adabiyotining yirik namoyandalardan biridir. Mahmudxo'ja Behbudiy 1875- yil 19-yanvarda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida muftiy oilasida tug'ilgan. Tog'asi Muhammad Siddiqning tarbiyasini olgan. Kichik tog'asi Mulla Odildan arab tilini, keyinchalik fors, turk tillarini mukammal o'rgangan Mahmudxo'ja 1899-1900- yillarda hajga boradi, 1903-1904- yillarda Moskva, Peterburgda, 1906-yilda Arabiston, Turkiya, Ufa, Qozon safarlarida bo'ldi. Samarqandda yangi usuldagi maktablar ochdi. 1913-yilda «Samarqand»gazetasi va «Oina» jurnalini nashr etishda bosh-qosh bo'ldi, 1918- yil o'rtalarida «Musulmon ishchi va dehqon sho'rosi»ga maorif xalq komissari bo'ldi, Turkistonning davlat tili to'g'risida dekret lohiyasini tayyorlashda jonbozlik ko'rsatdi, «Nashriyoti Behbudiy» nomli nashriyot ochdi. Mahmudxo'ja Behbudiy 1919-yil 25-martda Shahrisabzda «sho'roning ayg'oqchisi, jadid, sho'roga sotilgan»degan ayblar bilan qamalib, Qarshi shahrida qatl etiladi. Behbudiy qabrining qayerdaligi ma'lum emas. "Behbud" forscha so'z bo'lib, yaxshilik, sog'lomlik, foyda, najot, baxtli, tinch, osoyishta kabi ma'nolarni bildiradi. Mahmudxo'ja atigi 44 yil umr ko'rdi. Ammo shu qisqa umri mobaynida juda katta xayrli ishlarni amalga oshirishga ulgurdi. Undan 7 ta darslik, 200 ta maqola, ta'lim - tarbiyaga oid «Kitob ul-atfol»(1908), o'zbek adabiyotidagi ilk dramatik asar sifatida e'tirof etilgan «Padarkush» dramasi(1912), publitsistik ruhdagi «Sayohat xotiralari» (1914) meros bo'lib qoldi. Hozircha uning 1997 - yil bosilib chiqqan «Tanlangan asarlar»iga 12 tagina maqolasi kiritilgan. So'nggi yillarda



Date: 19th May-2026

«Oq yelpig`ichli xotin» nomli hikoyasi va «Sayohat xotiralari» hamda «Vasiyatnoma»si topilgan.

Inqilobgacha bo`lgan matbuot sahifalarida Behbudiy eng faol publitsist bo`ldi. Uning maqolalari faqat Turkiston doirasidagina emas, balki Kavkaz, Volga bo`yi matbuotida ham tez-tez bosilib turardi. Uning maqolalarida ma`rifat muammolaridan tortib, ijtimoiy adolatsizlik muammolarigacha dadil ko`tarilardi. Muallifning maqolalari asosan ilm olishga chaqirish, til o`rganishga da`vat bilan sug`orilgan. «Padarkush» dramasi «Yoshlarga murojaat», «O`quvchilarga yordam kerak», «Ibtidoiy maktablarning tartibsizligi yoxud taraqqiyotning yo`li», «Bizga isloh kerak», «Muhtaram yoshlarga murojaat», «Etiyoji millat», «Bizni kemirguvchi illatlar», «A`molimiz yoinki murodimiz», «Bayoni hol», «Millatni kim isloh etar?», «Haq olinur, berilmas» singari maqolalarida millatni tanazzulga sudraguvchi illatlar – ortiqcha sarf -xarajatlar, loqaydlik, ishyoqmaslik, savodsizlik, ongsizlikka qarshi o`t ochiladi. Behbudiyning ta`kidlashicha, millatni o`stirish, uni olamga tanitish, jamiyatni taraqqiy ettirishning yagona yo`li ilmdadir: «Haqiqatda taraqqiy va taomil uchun birinchi yo`l va asos maktabdur...» yoki «ilm – ma`rifatsiz hech bir millat hayot maydonida tura olmas». «Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondurki, makotib(maktablar) taraqqiyning boshlang`ichi, madaniyat va saodatning darvozasiidir». «Teatr nadur?» maqolasida esa bu savolga o`zi javob berib, «Teatr ibratxonadir, teatr vazxonadir, teatr ta`zir adibidir» deya javob beradi. Uning ta`kidlashicha, teatr ibratxona ekan, unixalqorasiga ko`proq olib kirish kerak. Behbudiyning o`limidan ikki yil o`tgandan keyin uning «Vasiyatnoma»si e`lon qilindi. Behbudiyning shogirdi, zamondoshi Hoji Muin tomonidan «Inqilob» jurnalining 1922-yil 1-sonida bosilgan bu «Vasiyatnoma»dan ma`lum bo`lishicha, Behbudiy hazratlari shunday dahshatli daqiqalarda ham o`zining shaxsiy taqdiri haqida emas, balki kelajak avlodi taqdiri to`g`risida qayg`uradi, shogirdlariga murojaat qiladi: «...Ey, Turkiston maorifi ishlarida bo`lg`on o`rtoq va o`g`lonlarim! Men o`zim garchi bandi bo`lsam-da, sizlarni esimdan chiqarmayman. Sizlarga vasiyat qilaman: maorif yo`lida ishlayturg`on muallimlarning boshini silangizlar! Maorifga yordam etingiz! O`rtadan nifoqni ko`taringiz! Turkiston bolalarini ilmsiz qo`ymangizlar! Bizdek maorif qurbonlarini yo`qlangizlar! Ozodlikni tezlik ila yuzaga chiqaringizlar! Mumkin qadar yangi maktablar ochish, shuningdek maorif va xalq saodatini ta`minlash sohasida tinmay ishlash bizga eng yaxshi haykal bo`ladi!»

Mahmudxo`ja Behbudiy o`zbek milliy dramaturgiyasining asoschisi hisoblanadi. U 1911-yilda mazkur janrning birinchi namunasi bo`lgan «Padarkush» dramasini yaratdi. Drama dastlab 1912 –yilda «Turon» gazetasida, 1913-yilda kitob holidi chop etildi. Asar to`la ma`noda xalqni ma`rifatli bo`lishga chaqiradi, o`z g`ururini anglashga, maorif va madaniyatni rivojlantirishga da`vat etadi. Bu yuksak g`oyani ilgari surgan asarni Chor hukumati Senzurasi e`lon qilishga ruxsat bermadi. Behbudiy esa dramani «Rusiyaning fransuz istibdodidan qutulishi va Borodino muhorabasi xotiralari yubileyiga bag`ishlayman» degan izoh bilan senzurdan ruxsat olishga muvaffaq bo`ldi. Pyesa tez orada butun Turkistonga mashhur bo`lib ketdi. 1913- yildan boshlab Samarqand, Toshkent, Qo`qon, Namangan, Kattaqo`rg`on, Buxoro shaharlaridagi dramtrup tomonidan sahnaga



Date: 19th May-2026

qo'yildi. O'sha davr gazetasining yozishicha, dastlab Samarqandda qo'yilgan tomoshada «xalq nihoyatda ko'p kelib, belat yetmagani va joyning yo'qligi uchun uch-to'rt yuz kishi qaytib ketdi. Ibodatxonaning borliq o'rni 320 nafarga kifoya qilardi. Yana 50 qadar o'rin hozirlangan bo'lsa ham kifoya etmadi. Belatlar bir ikki kun avval yoshlarni g'ayrati bilan sotilib tamom bo'lib edi». «Padarkush» dramasi asosini ma'rifatparvarlik g'oyasi tashkil etadi. U yoshlarni ilm-ma'rifatga targ'ib va tashviq qiladi. Insonni yoshligidan tarbiyalash lozim. Odam farzandini ham navnihol daraxtga mengzash mumkin. Uni qay tomonga yo'naltirib tarbiyalansa, umrining oxirigacha ana shu yo'ldan boradi. "Padarkush" dramasi hayotiy voqea va ziddiyatlar ko'rsatilib, nodonlik va jaholat qoralangan. Ilmsizlik va maishatbozlik, axloqsizlik tanqid qilingan. Ilm-ma'rifatni egallash g'oyasi targ'ib-tashviq etilgan. Bu asarning badiiy-estetik ahamiyati ana shunda.

Mahmudxo'ja Behbudiy din ilmlaridan boxabar bo'lgani uchun uning qahramonlari nutqida «Ilm olish barcha erkak va ayollar uchun ham farzdir», «Beshikdan mozorgacha ilm izlash lozim» yoki «Xitoyga borib bo'lsa ham ilm talab qilinglar» kabi hadisi shariflarning mazmuni berib boriladi. Domla va Ziyoli nutqini muallif hikmatlar, ibratli gaplarga boy tarzda beradi. Ilmdan yiroq bo'lgan obrazlar nutqida esa ancha kambag'al va ko'cha-ko'yda qo'llanadigan so'zlar ishlatiladi. Padarkush-ota qotili demakdir.

Dramadagi obrazlar	
Boy — 50 yashar	Xayrulla — boyning mirzo va mahrami, 18 — 20 yashar.
Toshmurod — boyning o'g'li, 15-17 yashar	Tangriqul — boyning qotili
Domla — yangi fikrlik mullo, 30 – 40yashar	Davlat bilan Nor — bo'z bola
Liza — rus xotuni, qabiha shaklida	Artun — armani mayxonachi
Ziyoli — (Ovrupo libosig'a) o'ruscha o'qigan, millatchi musulmon.	Boybucha — boyning xotuni, 35 — 40 yashar.

Mahmudxo'ja Behbudiyning «Padarkush» dramasi 1911-yilda yozilgan, 1913-yilda kitob holida nashr qilinadi. Behbudiy o'zbek adabiyoti tarixida birinchilardan bo'lib dramatik asar yozdi va u Turkistonning barcha shaharlarida sahnada namoyish etildi. Bu bilan Behbudiy o'zbek teatrini boshlab berdi. Dramada jaholat, ilmsizlik, tarbiyasizlikka qarshi ma'rifat ulug'lanadi. Muallif «o'qimagan bolaning holi»ni, ayanhli oqibatlarini bayon etishni maqsad qilib oladi. Behbudiy yoshlar ta'lim olishi va kamolga yetishida ijtimoiy va oilaviy muhit alohida o'rin tutishini «Padarkush» dramasi negiziga joylashtiradi. Unda qahramonlardan birining tilidan o'z g'oyasini: «Bizlarni xonavayron... bewatan va bandi qilg'on tarbiyasizlik va jaholatdir, bewatanlik, darbadarlik, asorat, faqirlik, zarurat va xorliqlar... hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir...», degan yo'sinda bayon qiladi.



Date: 19th May-2026

«Padarkush» soʻzi lugʻaviy jihatdan «ota qotili» degan maʼnoni anglatadi.

Behbudiy «IKKI EMAS, TOʻRT TIL LOZIM» maqolasida “Biz turkistoniylargʻa turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq lozimdur, Turkiy, yaʼni oʻzbekini sababi shulki, Turkiston xalqining aksari oʻzbekiy soʻylashur. Forsiy boʻlsa, madrasa va udabo¹ tilidur. Bu kungʻacha Turkistonni har tarafindagi eski va yangi maktablarinda forsiy nazm va nasr kitoblari taʼlim berilib kelgandur. Barcha madrasalarda sharʼiy va diniy kitoblar arabiy taʼlim berilsa ham, mudarrislarni taqirir-u² tarjimalar forschadur. Bu qoida, yaʼni dars kitobi — arabiy, muallim — turkiy, taqirir-u tarjimani forsiyiligi xila ajibdur. Turkistonda qadimdan beri bu uch til joriydur, eski yorliqlardan maʼlum boʻlurki, Turkistonda eski amir va xonlarni amri farmoyish va muborak nomalari doimo turkiy, yana ayni zamonda dorulaʼzou³ adabiyot tahrirlari forsiy yozilar ekan. Turkistonning Samarqand va Fargʻona viloyatlarinda forscha soʻylayturgan bir necha shahar va qishloqlar bordur. Buxoro hukumatining tili forsiydur. Fors shoir-u udabosi asarlari qiyomatgʻacha lazzati ketmayturgan xazinayi maʼnaviydurki, mundan foydalanmoq uchun ovrupoyilar milyardlar sarf etarlar. Forsiy bilgan kishi Firdavsiy, Bedil, Saʼdiy, «Masnaviy»⁴ dan qanday lazzat olsa, turkiy bilganlar Fuzuliy, Navoiy, Boqiy, Somiy, Abdulhaq Homid, Akrambek, Sanoyi, Nobiy, Nojiylardan, yana Tolstoʻy, Jul Vernva ulamoyi zamoniylarini turkiy tarjimasidan lazzat shunday oladur.

«TEYOTR NADUR?» maqolasida quyidagilarni bayon etadi: “Teyotr nimadur? Javobigʻa teyotr ibratnamodur, teyotr vaʼzxonadur, teyotr taʼziri adabidir. Teyotr oyinadurki, umumiy hollarni anda mujassam va namoyon suratda koʻzliklar koʻrub, karquloqsizlar eshitib, asarlanur⁵. Xulosa: teyotr vaʼz va tanbih etguvchi hamda zararlik odat, urf va taomilni, qabih va zararini ayonan koʻrsatguvchidir...Teyotrlarning yaxshi va yamon odatlarni sarrof⁶ va munaqqidi (taqlidchi) derlar.

Xulosa: teyotr bir navʼ maktab hukmindadur.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmudxoʻja Behbudiyning «Tanlangan asarlar» (Toshkent: «Maʼnaviyat» nashriyoti, 1999)
2. Shuhrat Rizayevning «Jadid dramasi» (Toshkent: «Sharq» nashriyoti, 1997)
3. Sahihi Buxoriy, juz 4, sahifa 156).«Oyna» jurnali, 1913- yil, 1- son, 12-14- betlar.
4. («Soʻz soʻylaguvchini ayb etmaguncha, soʻzi tuzalmaydur»). «Oyna» jurnali, 1914- yil, 29- son.

¹Udabo — adiblar.

²Taqirir — bayon.

³Dorulaʼzo — uzviy qism.

⁴“Masnaviy”-Jaloliddin Rumiylar asari

⁵Asarlanmoq — taʼsirlanmoq

⁶Sarrof — pul almashtiruvchi.

